



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№2(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 234 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari	22
<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari	27
<i>Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari	32
<i>Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi</i>	
Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	35
<i>Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi</i>	
Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ...	39
<i>Xaybatullaeva Sojidxon Ziyatullayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv	42
<i>Kamoliddinov Mirzohid</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi	45
<i>Kamoliddinova Dilnoza Axmadilaxanovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari.....	48
<i>Nurjanova Rayxan Urazbaevna</i>	
Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari	52
<i>Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi</i>	
Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari	56
<i>Sadikova Umida Botirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi	60
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi</i>	
Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarining tafovutlari	64
<i>Aminova Dilnoza Orifjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish	69
<i>Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari	73
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi	76
<i>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</i>	
Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi	79
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati.....	82
<i>Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi</i>	
Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar	85
<i>Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida	89
<i>Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li</i>	



Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish.....	94
<i>Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li</i>	
Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari	99
<i>Axmedova Dilnoza Anvarovna</i>	
Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari	102
<i>Bakirov Otabek Bo'ranovich</i>	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari	106
<i>D. J. Norboyeva</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri	110
<i>Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	113
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	117
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Principles of Organising Autonomous Learning.....	121
<i>Khazratova Zukhra Mamaraimovna</i>	
Najot – ta'limda, najot-tarbiyada	124
<i>Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna</i>	
Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers.....	127
<i>Niyozov Javlonbek</i>	
Landshaft dizayni vastasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish	131
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari.....	134
<i>S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva</i>	
TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish....	138
<i>Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik</i>	
Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	142
<i>Soliqova Barno Sodiq qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari	146
<i>Yarmatov Shermo'min Rahmatovich</i>	
Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье.....	149
<i>Атаджанова Сохиба Талиповна</i>	
Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	152
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	155
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari	163
<i>Eshonqulova Umida Xolmirzayevna</i>	
MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi	168
<i>To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna</i>	
Ta'lim jarayonidagi konfliktlar.....	173
<i>Abulova Mohigul Komiljonzoda</i>	
Talabalarining bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	176
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	



Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya	179
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari	183
Muzafarov Muxammadali Maxsudovich	
Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida)	187
Yadgarova Surayyo	
Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish	190
Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili	194
Yusupova Sanobar Odil qizi	
Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели	197
Бахтияр Катибжанович Саттаров	
Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста	201
Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова	
Условия эффективности инклюзивного образования	206
Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова	
Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов	211
Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева	
Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников	216
Джалилова Феруза Намазовна	
Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni	219
Zuhriddin Azizov	
Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США)	222
Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.	
Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста	227
Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	231
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna	

NAJOT – TA'LIMDA, NAJOT-TARBIYADA

Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna

Andijon shahridagi Prezident maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon adabiyoti vakili Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari yoritilgan. Dars mashg'ulotini sifatli tashkil etishning inversiya usuli ishlab chiqilgan va mazkur usul amaliy jihatdan tahlil qilingan. Bundan tashqari, badiiy asar tahliliga doir turli nuqtayi nazarlarga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: inversiya, noan'anaviy yondashuv, sifatli ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, fikrlashga o'rganish.

Abstract: This article discusses modern technologies for teaching the short story "Hellados" by Nodar Dumbadze, a representative of world literature. The inversion method for the qualitative organization of lessons has been developed and practically analyzed. In addition, different approaches to the analysis of a literary work are examined.

Key words: inversion, non-traditional approach, quality education, modern technologies, learning to think.

Аннотация: Данная статья посвящена современной технологии обучения рассказу "Элладос" Нодара Думбадзе – представителя мировой литературы. Разработан инверсионный метод качественной организации уроков и дан его практический анализ. Кроме того, рассматриваются различные подходы к анализу художественного произведения.

Ключевые слова: инверсия, нетрадиционный подход, качественное образование, современные технологии, обучение мышлению.

KIRISH

Bugungi kunda barcha sohalar qatori ta'lim tizimiga ham juda katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda" ^[1.5] degan so'zlarining o'zi ham bu sohada olib borilayotgan keng islohotlardan nishonadir. Ta'lim mazmunini sifatli va to'g'ri tashkil qilishda ta'lim shakli, o'quvchi va o'qituvchilarning faoliyati hamda faolligi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug' ajdodlarimizdan biri Abdulla Avloniy ham "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur", deb bejiz aytmagani ^[2.3].

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak, ta'lim fidoiylariga qanday talab va takliflar mavjud, degan savollarga ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda juda ko'p duch kelinayotgani soha rivoji uchun katta qadamlar tashlanayotganidan dalolat beradi. G'arb olimlarining qarashlarida ham pedagogik faoliyatni to'g'ri va samarali tashkil etishga doir fikrlar muhim o'rin tutadi. Xususan, V.A. Slastyonin pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: "O'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi, chunki pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi" ^[3.20].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qituvchi pedagogik bilim va ko'nikmalar egasi, ijodkor, psixologik jihatdan har tomonlama o'rnak bo'luvchi, ijtimoiy hayotda faol hamda yuksak insoniy xususiyatlar sohibi bo'lishi kerak. Agar obrazli fikrlasak, o'quvchi bir "giyoh", o'qituvchi esa "yomg'ir"dir, chunki o'qituvchigina bu "giyohlar"ni o'stirishga qodir. Muqaddas hadislarimizda aytilishicha: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: "Alloh taolo menga yuborgan hidoyat (Alloh taolo bandalariga ko'rsatgan to'g'ri yo'l, yo'llanma) va ilm ko'p yoqqan yomg'irga o'xshaydi" ^[4].

O'qituvchilik ilmining sohibi ham yomg'ir kabi foyda keltira oladi. Bundan tashqari, eng qadimiy adabiy yodgorliklarimizdan biri bo'lgan "Qutadg'u bilig"da ham ilm fazilati va bilimning buyukligi haqida hikmatlar



keltirilgan. Yusuf Xos Hojib: “Uquv-idrok va bilim egasi bo‘lgan har qanday odam sharaflidir” ^[5], deb yozgan edi. O‘qituvchi mana shunday sharaf egasi bo‘lib, uning sabog‘i, tarbiyasi, nutqi va kiyinish madaniyati – barchasi o‘rnak bo‘larli bo‘lishi zarur. Ayniqsa, zamonaviy pedagog qiyofasi yuqoridagi kabi xususiyatlarga ega bo‘lmog‘i maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasi hamda innovatsion g‘oyalarni tadbiq etish katta ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda innovatsiya tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tish lozim. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagi mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. innovation – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta‘minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi” ^[6, 197].

Anglashiladiki, ilg‘or pedagogik qobiliyat egasi bo‘lgan pedagoggina o‘quvchilarni mustaqil, tanqidiy va tahliliy fikrlashga o‘rgata oladigan, har bir nazariy tushunchani amaliy ko‘nikmalar asosida singdiradigan hamda sog‘lom fikrlar qarama-qarshiligining xolis muhitini yarata oladigan shaxsga aylangandagina sifatli ta‘lim haqida so‘z yuritish mumkin. Agar pedagogni ana shunday sifatlar bilan tavsiflay olsak, o‘quvchi erkin va mustaqil fikrlashga, yangidan yangi g‘oyalar va tashabbuslar ilgari surishga hamda o‘z iqtidorini namoyon etishga qodir barkamol avlod vakili sifatida shakllanadi.

Bundan tashqari, bugungi kun o‘quvchisi shunchaki eshituvchi yoki tinglovchi emas, balki bevosita dars mashg‘ulotining faol ishtirokchisi, tashkilotchisi va dars markazida harakat qiluvchi shaxsga aylanishi zarur. Buning uchun o‘qituvchidan noan‘anaviy metodlar va zamonaviy texnologiyalarni yaratish hamda amaliyotda qo‘llash talab etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmda inversiya degan tushuncha mavjud bo‘lib, inversiya gap bo‘laklarining odatdagi tartibining o‘zgarishini anglatadi. Inversiyaning semantik vazifasi gapning biror bo‘lagini alohida ta‘kidlash orqali nutqqa emosional-ekspressiv ruh baxsh etishdan iborat bo‘lib, demak, u muayyan uslubiy vazifani bajaradi. Dars jarayonini ham odatiy emas, balki noodatiy tarzda tashkil etish dars sifatini bir necha barobar oshirishga yordam beradi, ayniqsa, adabiyot darslarida, badiiy tahlilga asoslangan mashg‘ulotlarda bu usul samarali hisoblanadi. Badiiy asarni o‘rgatishda uning badiiy tahliliga doir topshiriqlarni berish muhim, negaki chin san‘at va uning go‘zallik olamini san‘at darajasida tushunish va tushuntirish dolzarbdir. “Biz ko‘pincha ‘tayyor’ asarlarni o‘qishga moyil bo‘lamiz va ‘tayyor’ qarashlarga suyanib, xuddi Amerika kashf qilgandek, asarni maqtay ketamiz; hech kim bilmasa, sezmasa, o‘sha fikrlarni o‘zimizniki qilib olamiz”, deb yozgan edi Ulug‘bek Hamdam ^[7,3-son].

Ta‘limning an‘anaviy usullaridan biroz chekinib, yangilikka intilish dars samaradorligini oshiradi, shuning uchun ham xattaxtaga hikoyaning ma‘lum joylaridan dars avvalida yozib qo‘yish va inversiya hodisasini qo‘llash hikoya badiiyatini ta‘kidlashga, obrazlarga xos xususiyatlarni oldindan, ya‘ni ketma-ket bo‘lmagan tartibda ko‘ra bilishga yordam beradi. O‘qituvchi mashg‘ulotning tashkiliy qismini (yo‘qlama, mavzu bilan tanishtirish kabi) yangi mavzu bayonidan so‘ng amalga oshirishi ham jarayonning inversiyaga monand qurilishiga xizmat qiladi va bunday yondashuv muayyan samara beradi. Masalan, Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasini inversiya usulida o‘rgatishda xattaxtaga “Nina xola, Nina xola, Yanguli qaytib keldi” jumlasining yozilishi o‘quvchilarda tabiiy ravishda intuitiv bilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, ya‘ni ular asar qahramoni Yanguli, uning uyi va Vatanidan ketishi, ma‘lum vaqtdan so‘ng qaytishi hamda bu qaytish kimningdir quvonchiga sabab bo‘lishi haqida mulohaza yurita boshlaydilar. “Men Yangulining hamla qilishini kutardim...” jumlasini esa o‘quvchilarning ong-u shuurida Yanguli kim bilandir yoqalashgan degan tasavvurni yuzaga keltiradi, bundan tashqari, mazkur jumlada metaforik tasvir mavjud bo‘lib, “hamla qilish” odatda hayvonlarga xos xususiyat sanalsa-da, Yanguliga nisbatan qo‘llanishi uning shavqatsizlarcha hujum qilishini ta‘kidlaydi.

Umuman olganda, har qanday asardagi har bir jumla va undagi obraz ijodkor maqsadlari tomon xizmat qiladi. “Keyin oyingni surishtirgan edi: kim, qayerda... Men nima deyin... shunaqa... shunaqa... haligi... yo‘q... o‘lgan dedim. Shuning uchun ham so‘kmadi-da seni...” jumalari ham hikoya mazmunini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etib, Yanguliga xos yana bir xususiyat – rahmdillikni idrok etishga imkon beradi, shuningdek, Kokaga tegishli ushbu nutqda, uning duduqlanishida ham ekspressivlik mavjud bo‘lib, onani yo‘qotish kabi og‘ir judolik holati Kokaning mazkur ma‘lumotlarni ravon ifodalay olmasligiga sabab bo‘ladi va bu Jamolga nisbatan uning qalbida yuksak mehr borligidan dalolat beradi. Shundan so‘ng asar matni bilan tanishish jarayonida o‘quvchilar ilgari paydo bo‘lgan savollarga tasdiq va javob izlaydi, asarni shavq bilan o‘qishga yoki tinglashga harakat qiladi.



Asar bilan o'quvchilarni to'liq tanishtirgach, darsning keyingi bosqichlari amalga oshiriladi va o'quvchilarga "5" baho kartochkalari ular soniga qarab tarqatilib, ularni saqlab qolish uchun turli topshiriqlar bajariladi, masalan, "+" va "-" texnologiyasi asosida asardan olinishi mumkin bo'lgan xulosa va izohlarga belgi qo'yish hamda ularni izohlash vazifasi beriladi.

1-jadval: "+ va -" texnologiyasi

"Hellados" (+ va -)
Asarda Ona ulug'lanishiga ishora bor, chunki...
Asarda do'stlik ulug'lanadi...
O'lmoq- yagona chora emas, negaki...
Agar men Yanguli bo'lsam huddi u kabi yo'l tutgan bo'lardim, chunki...
Agar men Yanguli bo'lsam u kabi yo'l tutmagan bo'lardim, chunki...

2-jadval: "False and true" texnologiyasini ham qo'llash

Otaga qarshi ish qilish mumkin		Xola ham onadek mehribon		Hamma ko'ksiga "Hellados" deb yozib olishi kerak		Yanguli oriyatlidir		Yanguli gunohkor	
False	True	False	true	False	true	false	True	false	true

Ushbu texnologiya orqali badiiy asardan olingan hissiy ta'sirning qanchalik to'g'ri yoki, noto'g'ri ekanligini muqoyasa qilsa bo'ladi.

XULOSA

Bu ikki texnologiya savollarini istalgancha davom ettirish mumkin. O'ylaymanki, badiiy asar o'qish darslari mana shunday inversiya asosiga qurilsa, o'quvchilarning badiiy asardan oladigan hissiy ta'siri kuchayadi, adabiyotni yanada seva boshlaydi, badiiy asar o'qish va uni tahlil qilishga ehtiyoji tobora ortib boradi. Ma'lumki, tashqi olamdan kirib kelayotgan har qanday axborotni biz ma'lum ichki kechinmalar bilan qabul qilamiz. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldosh shunday yozadi: "Agar sinchi badiiy asarga mo'jizaviy bir butunlik tarzida yondashilmaydigan bo'lsa, uning sir-u jozibasi bir zumda yo'qqa chiqishi mumkin" [8.87]. Mening fikrimcha, har bir pedagog sinchi misoli badiiy asar zavqidan o'quvchilarni bahramand etish yo'llarini topishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan video-selektor yig'ilishida so'zlagan nutqi. 29-01-2022-yil.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 1917-yil, 3-bet.
3. Slasten V.A. Obshaya pedagogika. – M.: Pedagogika, 2003-yil.
4. Sahihi Buxoriy. 1-jild. Imom Ismoil al-Buxoriy. T.: Qomuslar, 1997-yil, 21-bet.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.: Cho'lpon, 2007-yil, 15-bet.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "I" harfi. T., 197-bet.
7. Ulug'bek Hamdam. "Yoshlik" yoshlarning adabiy-ijtimoiy jurnali. T., 2019-yil, 10-son.
8. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. T.: "Kamalak", 2006-yil, 87-bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.